

 Actual problems of social and humanitarian sciences
Актуальные проблемы социальных и гуманитарных наук

Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzARB muammolari

2/S-son (4-jild)

2024

SCIENCEPROBLEMS.UZ

**ИЖТИМОЙ-ГУМАНИТАР ФАНЛАРНИНГ
ДОЛЗАРБ МУАММОЛАРИ**

№ S/2 (4) – 2024

**АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО-
ГУМАНИТАРНЫХ НАУК**

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

ТОШКЕНТ-2024

БОШ МУҲАРРИР:

Исанова Феруза Тулқиновна

ТАҲРИР ҲАЙЪАТИ:

07.00.00-ТАРИХ ФАНЛАРИ:

Юлдашев Анвар Эргашевич – тарих фанлари доктори, сиёсий фанлар номзоди, профессор, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Мавланов Укташ Махмасабирович – тарих фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Хазраткулов Аброр – тарих фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети.

Турсунов Равшан Нормуратович – тарих фанлари доктори, Ўзбекистон Миллий Университети;

Холикулов Ахмаджон Боймаҳамматовиҷ – тарих фанлари доктори, Ўзбекистон Миллий Университети;

Габриэльян Софья Ивановна – тарих фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон Миллий Университети.

08.00.00-ИҚТИСОДИЁТ ФАНЛАРИ:

Карлибаева Раја Хожабаевна – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Насирходжаева Дилафруз Сабитхановна – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Остонокулов Азамат Абдукаримович – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Тошкент молия институти;

Арабов Нурали Уралович – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат университети;

Худойқулов Садирдин Каримович – иқтисодиёт фанлари доктори, доцент, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Азизов Шерзод Ўқтамович – иқтисодиёт фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон Республикаси Божхона институти;

Хожаев Азизхон Сайдалохонович – иқтисодиёт фанлари доктори, доцент, Фарғона политехника институти

Холов Актам Ҳатамович – иқтисодиёт фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Шадиева Дилдора Ҳамидовна – иқтисодиёт фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент в.б, Тошкент молия институти;

Шакаров Қулмат Аширович – иқтисодиёт фанлари номзоди, доцент, Тошкент ахборот технологиялари университети

09.00.00-ФАЛСАФА ФАНЛАРИ:

Ҳакимов Назар Ҳакимович – фалсафа фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Яҳшиликов Жўрабой – фалсафа фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат университети;

Файбуллаев Отабек Мухаммадиевич – фалсафа фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат чет тиллар институти;

Сайдова Камола Усканбаевна – фалсафа фанлари доктори, "Tashkent International University of Education" халқаро университети;

Ҳошимхонов Мўмин – фалсафа фанлари доктори, доцент, Жиззах педагогика институти;

Ўроқова Ойсулув Жамолиддиновна – фалсафа фанлари доктори, доцент, Андижон давлат тибиёт институти, Ижтимоий-гуманитар фанлар кафедраси мудири;

Носирходжаева Гулнора Абдукаҳаровна – фалсафа фанлари номзоди, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Турдиев Бехruz Собирович – фалсафа фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент, Бухоро давлат университети.

10.00.00-ФИЛОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:

Ахмедов Ойбек Сапорбаевич – филология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети;

Кўчимов Шухрат Норқизилович – филология фанлари доктори, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Ҳасанов Шавкат Аҳадович – филология фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат университети;

Бахронова Дилрабо Келдиёровна – филология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети;

Мирсанов Ғайбулло Қулмуродович – филология фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат чет тиллар институти;

Салаҳутдинова Мушарраф Исамутдиновна – филология фанлари номзоди, доцент, Самарқанд давлат университети;

Кучкаров Рахман Урманович – филология фанлари номзоди, доцент в/б, Тошкент давлат юридик университети;

Юнусов Мансур Абдулаевич – филология фанлари номзоди, Ўзбекистон Республикаси Президенти хузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Саидов Улугбек Арипович – филология фанлари номзоди, доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти хузуридаги Давлат бошқаруви академияси.

12.00.00-ЮРИДИК ФАНЛАР:

Ахмедшаева Мавлюда Ахатовна – юридик фанлар доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Мухитдинова Фирюза Абдурашидовна – юридик фанлар доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Эсанова Замира Нормуротовна – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикасида хизмат кўрсатган юрист, Тошкент давлат юридик университети;

Ҳамроқулов Баҳодир Мамашарифович – юридик фанлар доктори, профессор в.б., Жаҳон иқтисодиёти ва дипломатия университети;

Зулфиқоров Шерзод Хуррамович – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси Жамоат хавфсизлиги университети;

Хайитов Хушвақт Сапарбаевич – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси Президенти хузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Асадов Шавкат Файбуллаевич – юридик фанлар доктори, доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти хузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Утемуратов Махмут Ажимуратович – юридик фанлар номзоди, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Сайдуллаев Шахзод Алиханович – юридик фанлар номзоди, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Ҳакимов Комил Бахтиярович – юридик фанлар доктори, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Юсупов Сардорбек Баходирович – юридик фанлар доктори, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Амиров Зафар Актамович – юридик фанлар бўйича фалсафа доктори (PhD), Ўзбекистон Республикаси Судъялар олий кенгаши хузуридаги Судъялар олий мактаби;

Жўраев Шерзод Юлдашевич – юридик фанлар номзоди, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Бабаджанов Атабек Давронбекович – юридик фанлар номзоди, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Раҳматов Элёр Жумабоевич - юридик фанлар номзоди, Тошкент давлат юридик университети;

13.00.00-ПЕДАГОГИКА ФАНЛАРИ:

Хашимова Дильдархон Уринбоевна – педагогика фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Ибрагимова Гулнора Хавазматовна – педагогика фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Закирова Феруза Махмудовна - педагогика фанлари доктори, Тошкент ахборот технологиялари университети хузуридаги педагогик кадрларни қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш тармоқ маркази;

Қаюмова Насиба Ашурновна – педагогика фанлари доктори, профессор, Қарши давлат университети;

Тайланова Шохида Зайневна - педагогика фанлари доктори, доцент;

Жуманиёзова Мұхәйё Тожиевна – педагогика фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети;

Ибрахимов Санжар Урунбаевич – педагогика фанлари доктори, Иқтисодиёт ва педагогика университети;

Жавлиева Шахноза Баходировна – педагогика фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), Самарқанд давлат университети;

Бобомуротова Латофат Элмуродовна - педагогика фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), Самарқанд давлат университети.

19.00.00-ПСИХОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:

Каримова Васила Маманосировна – психология фанлари доктори, профессор, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети;

Хайитов Ойбек Эшбоевич – Жисмоний тарбия ва спорт бўйича мутахассисларни қайта тайёрлаш ва малакасини ошириш институти, психология фанлари доктори, профессор

Умарова Навбаҳор Шокировна – психология фанлари доктори, доцент, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети, Амалий психологияси кафедраси мудири;

Атабаева Наргис Батировна - психология фанлари доктори, доцент, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети;

Шамшетова Анжим Карамаддиновна – психология фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети;

Қодиров Обид Сафарович – психология фанлари доктори (PhD), Самарканд вилоят ИИБ Тиббиёт бўлими психологик хизмат бошлиғи.

22.00.00-СОЦИОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:

Латипова Нодира Мухтаржановна – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон миллий университети кафедра мудири;
Сеитов Азамат Пўлатович – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон миллий университети;

Содиқова Шоҳида Мархабоевна – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон халқаро ислом академияси.

23.00.00-СИЁСИЙ ФАНЛАР

Назаров Насриддин Атакулович –сиёсий фанлар доктори, фалсафа фанлари доктори, профессор, Тошкент архитектура қурилиш институти;
Бўтаев Усмонжон Хайруллаевич –сиёсий фанлар доктори, доцент, Ўзбекистон миллий университети кафедра мудири.

ОАК Рўйхати

Мазкур журнал Вазирлар Махкамаси хузуридаги Олий аттестация комиссияси Раёсатининг 2022 йил 30 ноябрдаги 327/5-сон қарори билан тарих, иқтисодиёт, фалсафа, филология, юридик ва педагогика фанлари бўйича илмий даражалар бўйича диссертациялар асосий натижаларини чоп этиш тавсия этилган илмий нашрлар рўйхатига киритилган.

Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари” электрон журнали 2020 йил 6 август куни 1368-сонли гувоҳнома билан давлат рўйхатига олинган.

Муассис: “SCIENCEPROBLEMS TEAM” маъсулияти чекланган жамияти

Таҳририят манзили:

100070. Тошкент шаҳри, Яккасарой тумани, Кичик Бешёғоч кўчаси, 70/10-уй. Электрон манзил:
scienceproblems.uz@gmail.com

Боғланиш учун телефонлар:
(99) 602-09-84 (telegram).

07.00.00 – ТАРИХ ФАНЛАРИ

Полвонов Козимбек	
ЎЗБЕКИСТОННИНГ ЖАНУБИЙ ШАҲАРЛАРИ ТОПОНИМИГА ОИД	
МАЪЛУМОТЛАР	10-15
<i>Xadjamuratova Matlyuba</i>	
МАКТАВГАЧА ТА’ЛИМДА БОЛАЛАРНИ ИЖТИМОИY ХИМОЯ QILISHGA INNOVATSION	
YONDOSHUVNING DOLZARBLIGI	16-21
Шовкатов Шокир Шовкат ўғли	
АБУЛ-ЮСР ПАЗДАВИЙ ИЛМИЙ МЕРОСИНИ ЎРГАНИШДАГИ ЁНДАШУВЛАР	22-31
<i>Mo'minov Xusanboy Madaminjonovich, Qodirjonov Omadjon Tavakkaljon o'g'li</i>	
О'zbekiston RESPUBLIKASIDA SUD QONUNCHILIGIGA KIRITILGAN O'ZGARISHLAR VA	
ULARNING AHAMIYATI	32-36

Пардаев Асрор	
ҚАШҚАДАРЁ ВИЛОЯТИ АҲОЛИСИНИ ХАЛҚ ИСТЕМОЛИ ВА ОЗИҚ-ОВҚАТ	
МАҲСУЛОТЛАРИ БИЛАН ТАЪМИНЛАШ МАСАЛАЛАРИ	37-42

08.00.00 – ИҚТИСОДИЁТ ФАНЛАРИ

Умурзақова Мўътабархон Нодир қизи	
ЖАҲОНДА ТИББИЙ СУҒУРТА ТИЗИМИНИНГ РИВОЖЛАНИШ ХУСУСИЯТЛАРИ	43-52

Рахманов Зафар	
ТИЖОРАТ БАНКЛАРИДА ДЕПОЗИТ ОПЕРАЦИЯЛАРИНИНГ РИВОЖЛАНИШ	
ТЕНДЕНЦИЯЛАРИНИ БАҲОЛАШ	53-62

Аминов Фазлитдин Баҳадирович	
РОЛЬ И ЗНАЧЕНИЕ СЕМЕЙНОГО ПРЕДПРИНИМАТЕЛЬСТВА В ЭКОНОМИКЕ	
РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН	63-70

Курбонова Шаҳриноз Авазхоновна	
ИҚТИСОДИЁТНИ ДИВЕРСИФИКАЦИЯЛАШ ЖАРАЁНЛАРИДА АСОСИЙ ВОСИТАЛАР	
ТАҲЛИЛИНИ ЎЗИГА ХОС ЖИҲАТЛАРИ	71-81

<i>Azimova Hulkar Egamberdiyevna</i>	
KREDIT PORTFELINI SAMARALI BOSHQARISHDA TIJORAT BANKLARINING O'RNI	82-87

Rajabov Orzujon Mamasoliyevich	
LOGISTIKA XIZMATLARINI KO'RSATISHDA BUYUMLAR INTERNETI (INTERNET OF	
THINGS)DAN FOYDALANISH	88-93

Сайдов Сарвар Хайруллоевич	
ДАВЛАТ ХИЗМАТЧИЛАРИДА БОШҚАРУВ КОМПЕТЕНЦИЯЛАРИНИ ШАКЛАНТИРИШ	
БОРАСИДА ХОРИЖ ТАЖРИБАСИ	94-104

Сержанов Аймурат Медетбаевич	
ХАЛҚАРО АМАЛИЁТ ВА ЎЗБЕКИСТОНДА РАҶАМЛИ БАНКЛАР ХИЗМАТЛАРИНИ ЯРАТИШ	
ЗАРУРИЯТИ	105111

Туробов Шерзод Алишерович, Ибодуллаев Зафар Ибодуллаевич	
ТИЖОРАТ БАНКЛАРИ ФАОЛИЯТИНИ ТАРТИБГА СОЛИШНИНГ ХОРИЖ	
ТАЖРИБАСИ	112-119

<i>Daniyarova Feruza Baxriddinovna, Chinorova Shahodat Mansur qizi</i>	
O'zbekiston IQTISODIYOTIGA XORJIY INVESTITSIYALARNI JALB QILISH	
YO'LЛАRI	120-126

Temirova Feruza Sagdullayevna

XULQ-ATVOR IQTISODIYOTI VA BRENDGA SODIQLIK 127-132

Sharipova Shaxzoda Xasanovna

YANGI O'ZBEKISTONDA TURIZM MADANIYATINI YUKSALTIRISH ISTIQBOLLARI 133-138

09.00.00 – ФАЛСАФА ФАНЛАРИ

Alimova Shahniza Hamidovna

НОГИРОНЛИГИ БОР ЁШЛАР - АЛОҲИДА ХУСУСИЯТГА ЭГА ИЖТИМОЙ-ДЕМОГРАФИК ГУРУХ СИФАТИДА 139-147

Asrakulova Adiba Nabieva

“ЁШЛАР ВА БИЗНЕСНИ ҚЎЛЛАБ-ҚУВВАТЛАШ ЙИЛИ” НИНГ ҚАБУЛ ҚИЛИНИШИ ТАДБИРКОРЛАРНИНГ ИҚТИСОДИЙ ТАФАККУРИНИ РИВОЖЛАНТИРИШДАГИ АҲАМИЯТИ 148-154

10.00.00 – ФИЛОЛОГИЯ ФАНЛАРИ

Teshabayeva Dilfuza Muminovna

LEXICAL PROBLEMS OF TRANSLATING THE NAMES OF NEW PHENOMENA IN MASS MEDIA 155-160

Rustamov Ilhom Tursunovich, Inog'omjonova Robiya Rustamjon qizi

INTERFERENSIYA HODISASINING TILDA AKS ETISHI XUSUSIDA OLIMLARNING TADQIQOTLARI VA QARASHLARI 161-165

Abdikhamidova Sevinch Obidjon kizi

PROBLEMS FACED IN TRANSLATING PROPER NOUNS 166-170

Djurakulova Elmira Suyunova

SHOYIM BO'TAYEV ROMANLARIDA BADIY XRONOTOP VA MIFOLOGIK TALQIN 171-177

Dalieva Madina Khabibullaevna

THE ROLE OF BLENDING THEORY IN POLYSEMY AND METAPHOR 178-183

Жўраева Ирода Ахмедовна

ИНГЛИЗ ВА ЎЗБЕК АНТРОПОНИМИК ЛУФАТЛАР ТИПОЛОГИЯСИ 184-189

Iminova Shahnoza-Begim Bahodirovna

INGLIZ TILIDA INSONNING IJOBIY AQLIY XUSUSIYATLARINING IFODALOVCHI BIRLIKLARNING KONSEPTUAL, LINGVO-MADANIY XUSUSIYATLARI 190-193

Irgasheva Shoxida Sadreddinovna

INTERNET DISKURSIDAGI IQTISODIY NEOLOGIZMLARNI TARJIMA QILISH XUSUSIYATLARI 194-200

Tursunova Zarina Farxodovna

LINGVISTIKADA EMOTLARNI O'RGANISHGA ZAMONAVIY YUNDASHULAR (INGLIZ TILI ASOSIDA) 201-205

Satibaldiyev Erkinjon Kamilovich

PARADIGMATIC SOUND INTERFERENCE IN THE ENGLISH SPEECH OF TURKOPHONES 206-212

Radjabova Hafiza Shukrulloevna

INGLIZ VA O'ZBEK TERMINOLOGIYASINING METODOLOGIK ASOSLARI 213-220

Avezova Dilovar Salimovna

TAXALLUSLARNI O'RGANISHNING NAZARIY JIHATI 221-225

<i>Alikberova Kamila Adhamovna</i>	
A CRITICAL ANALYSIS OF LANGUAGE USE AND LANGUAGE ACQUISITION	226-232
<i>Rakhmatova Bahara Ibodulla qizi</i>	
THE ROLE OF LEGAL DISCOURSE IN MODERN LINGUISTICS	233-238
<i>Valieva Nargizakhon Zamir kizi</i>	
COMPARATIVE ANALYSIS OF “KITE RUNNER” AND “A THOUSAND SPLENDID SUNS” BY KHALED HOSSEINI: THEMES, CHARACTERS, AND SOCIOPOLITICAL CONTEXT	239-244
<i>Mamatqulova Zilola Rejabaliyevna</i>	
RISHTON KULOLCHILIK MAKTABI KASB-HUNAR LEKSIKASINING STUKTURAL TASNIFI	245-251
<i>Alimova Kamola Tursunovna</i>	
CHALLENGES IN PREPARATION OF GUIDE TRANSLATORS	252-258
<i>Сейтимбетова Айкумар Пулатбаевна</i>	
ЛИНГВОКУЛЬТУРОЛОГИЧЕСКИЕ ОСОБЕННОСТИ ФРАЗЕОЛОГИЧЕСКИХ ЕДИНИЦ В АНГЛИЙСКОМ, РУССКОМ И КАРАКАЛПАКСКОМ ЯЗЫКАХ.....	259-264
<i>Бегжанова Айсилуу Махмудовна</i>	
ИНГЛИЗ ВА ЎЗБЕК ТИЛЛАРИДА КОМПЬЮТЕР ЛИНГВИСТИКАСИ ТЕРМИНЛАР ТИЗИМИНИНГ ЎЗИГА ХОС ХУСУСИЯТЛАРИ	265-270
<i>Kubanova Ilmira Sharifovna</i>	
EXPLORING ABBREVIATED RAILWAY TERMINOLOGY IN ENGLISH: A COMPREHENSIVE ANALYSIS	271-275
<i>Azamjonova Sarvinoz</i>	
USE OF TOPONYMS IN MODERN FRENCH MEDIA	276-282

12.00.00 - ЮРИДИК ФАНЛАР

<i>Muxiddinova Dildora Muxiddinovna</i>	
O'ZBEKİSTONNING BOJXONA FAOLIYATIGA KİOTO KONVENSIYASINI JORİY ETİŞHNİNG HUQUQIY JİHATLARI VA JSTGA A'ZOLIKNING TA'SIRI	283-292
<i>Asadov Eldorjon Nizomiddin o'g'li</i>	
SOLIQ NAZORATI HUQUQIY ASOSLARINI TAKOMILLASHTIRISH DAVLAT MOLİYAVİY NAZORATI INSTITUTİNİNG MUHİM OMİLİ	293-298
<i>Mustanov Ilxom Abdıvalijonovich</i>	
BANK QONUNCHILIGINI BUZGANLIK UCHUN JAVOBGARLIKNING NAZARIY-HUQUQIY JİHATLARI	299-304
<i>G'oyibov Jo'rabek Choriyevich</i>	
YOSHLAR MIGRATSİYASI: MUAMMO VA YUTUQLAR TAHLILI	305-309

13.00.00 - ПЕДАГОГИКА ФАНЛАРИ

<i>Kuziyev Otobek Chuliyevich</i>	
TALABALARDA AXBOROT MODELLASHTIRISH KO'NIKMASINI SHAKLLANTIRISHNING MUHİM UCH BOSQICHI	310-314
<i>Fattaxova Diloram</i>	
TIL O'QITISHDA FOYDALANILADIGAN KOMPYUTER METODLARI	315-321
<i>Moydinova Elmira</i>	
APPLICATION OF FLIPPED LEARNING METHODS IN THE UNIVERSITY	

CLASSROOM	322-326
<i>Xodiyeva Gulhayo Hasan qizi</i>	
ZAMONAVIY BOSHLANG'ICH TA'LIMDA 4K MODELI KOMPETENSIYALARINI RIVOJLANTIRISHGA INTEGRATIV YONDASHUVNING MOHIYATI	327-333
<i>Doniyorova Gulrux Shoniyozovna</i>	
AVTOMOBILSOZLIK YO'NALISHI TALABALARINING KASBIY KOMPETENSIYASINI RIVOJLANTIRISHDA DASTURIY VOSITALARNING AHAMIYATI	334-338
<i>Jumaniyozova Muhayyo Tojiyevna</i>	
RIVOJLANTIRUVCHI TA'LIMINING ASOSIY NAZARIYALARIDA TA'LIM OLUVCHINING ANALITIK QOBILIYATINI SHAKLLANTIRISH MUAMMOLARI	339-344
<i>Xo'jamberdiyeva Dilfuzা Ikramovna</i>	
DARSLIK BILAN ISHLASH O'QUVCHILARNING AXBOROT KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISH VOSITASI SIFATIDA	345-351
<i>Mamaraimov Bekzod Qodirovich</i>	
O'QUVCHILARNING TADQIQOTCHILIK KO'NIKMALARINI SHAKLLANTIRISH VA ULARNING QIDIRUV FAOLIYATIGA TAYYORLIGI	352-356
<i>Xudayberdiev Nurislam Nuralievich</i>	
BO'LAJAK O'QITUVCHILARING RAQAMLI KOMPETENTLIGINI SHAKLLANTIRISHNING TASHKILIY-PEDAGOGIK MEXANIZMI	357-363
<i>Qarshiyev Jamshid Murotaliyevich</i>	
TALABALARINING O'QUV FAOLIYATI VA ILMIY IZLANISHLARIDA SUN'IY INTELLEKT: IMKONIYAT VA CHEGARALAR	364-369
<i>Teshaboyeva Shahodat</i>	
ZAMONAVIY SHAROITDA SHAXSNING KASBIY HUQUQIY MADANIYATI	370-375
<i>To'rayeva Dilnoza Ismoilovna</i>	
RAQAMLI TA'LIM MUHITIDA BO'LAJAK O'QITUVCHINING KASBIY KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISH USLUBIY TAYYORGARLIKNING BIR QISMI SIFATIDA	376-380
<i>Beknayeva Shaxnoza Vladimirovna</i>	
MAKTABGACHA TA'LIM TASHKIOTLARIDA INSON RESURSLARINI BOSHQARISHDA INNOVATSION JARAYONLAR	381-388
<i>Dusyarov Salimjon Xudaymuratovich</i>	
HARAKATLI O'YINLAR ASOSIDA MAKTAB O'QUVCHILARIDA JISMONIY MADANIYATNI SHAKLLANTIRISH	389-393

Fattaxova Diloram

O'zbekiston Milliy universiteti katta o'qituvchisi,
pedagogika fanlari nomzodi
E-mail: fattoxovadiloram@gmail.com

TIL O'QITISHDA FOYDALANILADIGAN KOMPYUTER METODLARI

Annotatsiya. O'zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeyini oshirish, davlat tili maqomini mustahkamlash, dunyoning rivojlantirilgan tillari darajasiga ko'tarish dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Til ta'limida mavzuni yoritishda, tushuntirishda bir qator an'anaviy qo'llanib kelayotgan metodlardan foydalanish mumkin. Kompyuter texnologiyalarining yutug'i sifatida elektron lug'atlardan foydalanishni keltirish mumkin. Maqolada an'anaviy lug'atlar bilan elektron lug'atlarning farqli tomonlari ham tahlil qilinadi. Shuningdek, maqolada "Swot-tahlil" metodi, "Xulosalash" metodi, "Tushunchalar tahlili" metodi, Tezaurus lug'atlar haqida ma'lumotlar berilgan.

Kalit so'zlar: kompyuter texnologiyalari, baholash, mustaqil fikrlash, tahlil qilish, modul

Fattakhova Diloram

Senior lecturer of the National University of Uzbekistan,
candidate of pedagogical sciences

COMPUTER METHODS USED IN LANGUAGE TEACHING

Abstract. Increasing the prestige and position of the Uzbek language as a state language, strengthening the status of the state language, and raising it to the level of developed languages of the world is one of the urgent issues. A number of traditionally used methods can be used to illuminate and explain the topic in language education. The article analyzes the differences of electronic dictionaries with traditional dictionaries. The article provides information about the "Swot-analysis" method, the "Summary" method, the "Concept analysis" method, and Thesaurus dictionaries.

Key words: computer technology, assessment, independent thinking, analysis, module.

Фаттахова Дилорам

Старший преподаватель Национального университета Узбекистана,
кандидат педагогических наук

КОМПЬЮТЕРНЫЕ МЕТОДЫ, ИСПОЛЬЗУЕМЫЕ В ОБУЧЕНИИ ЯЗЫКАМ

Аннотация. В настоящее время является актуальным укрепление статуса государственности узбекского языка, его изучение на мировом уровне. В обучении языкам используются традиционные методы. В статье анализируются различия электронных словарей с традиционными словарями. Также в статье дается информация о таких методах, как "Swot-анализ", "Вывод", "Анализ понятий", также информация о словарях - тезаурусах

Ключевые слова: компьютерные технологии, оценивание, самостоятельное мышление, анализ, модуль.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V4SI2Y2024N46>

Kirish. Jahon tilshunosligida til o'qitish masalasi davlat siyosati darajasidagi masala hisoblanadi. Til ta'limida kompyuter texnologiyalaridan foydalanish, tilni o'qitish maqsadida tavsiflash muhim ahamiyat kasb etadi. Bugungi kunda rus, ingliz, nemis, fransuz, koreys, arab, xitoy tillarini o'qitish metodikasining takomillashgan ko'rinishi boshqa tillar doirasiga dadil kirib bormoqda. Ana shunday vaziyatda o'zbek tilining dunyo tillari orasidan o'rinn olishini ta'minlash, tilni ona tili, xalq, millat tili – qadriyat sifatida saqlab qolish, qo'llanish doirasini kengaytirish muhim ahamiyat kasb etadi. Til ta'limida mavzuni yoritishda, tushuntirishda bir qator an'anaviy qo'llanib kelayotgan metodlardan foydalanish mumkin. Ulardan ayrimlari haqida to'xtalamiz.

Tadqiqot metodologiyasi.

"SWOT-tahlil" metodi.

Metodning maqsadi: innovatsion til ta'limi, metodika yuzasidan mavjud nazariy bilimlar va amaliy tajribalarni tahlil qilish, bilim va ko'nikma hosil qilish, taqqoslash orqali muammoni hal etish yo'llarini topishga, bilimlarni mustahkamlash, takrorlash, baholashga, mustaqil fikrflashni, tahlil qilishni, nostonart tafakkurni shakllantirishga xizmat qiladi.

S (strength)	- afzal jihatlar
W (weakness)	- cheklangan jihatlar
O (opportunity)	- imkoniyatlar
T (threat)	- to'siqlar

Namuna: Kompyuter lingvendidaktikasi bo'yicha "**swot-tahlil**" imkoniyatlarini jadvalga tushiring.

S	Til ta'limiga kompyuter texnologiyalaridan foydalanishning afzalligi.	Zamonaviy taraqqiyot, integratsiya, innovatsion rivojlanish, texnik ko'rgazmalilik til ta'limiga ta'sir ko'rsatadi.
W	An'anaviy til ta'limida texnik imkoniyatlar va kompyuter texnologiyalarida foydalanish imkoniyati bo'lмаган.	Til ta'limida ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyot, siyosiy o'zgarishlar va kishilik jamiyatining ilg'or yutuqlari e'tiborga olinishi kerak.
O	Til ta'limida kompyuter texnologiyalari va kompyuter metodlaridan foydalanish o'zbek tilini tilni ona tili sifatida mukammal o'zlashtirish imkonini yaratadi.	Tilni individual shaxs omillari bilan hamda ko'rgazmalilik asosida uyg'unlikda o'rganish imkoniyati yuzaga keladi.
T	To'siqlar (tashqi).	Til ta'limida innovatsion va integratsiya, kompyuter texnologiyalari yuzasidan sohasidagi bilimlarning yetishmasligi.

"Xulosalash" (Rezyume, Veer) metodi

Metodning maqsadi: Bu metod antroposentrik tilshunoslikning murakkab, ko'ptarmoqli, muammoli xarakterdagi mavzularni o'rghanishga qaratilgan. Kompyuter lingvovididaktikasi ham til o'rghanishda shaxs imkoniyatlarini nazarda tutadi. Metodning mohiyati shundan iboratki, bunda mavzuning turli tarmoqlari bo'yicha bir xil axborot beriladi va ayni paytda, ularning har biri alohida aspektlarda muhokama etiladi. Masalan, lingvovididaktika va kompyuter lingvovididaktikasi, kompyuter lingvistikasi va kompyuter lingvovididaktikasi, pedagogika va til ta'limi, til ta'limi va lingvovididaktikaning umumiy va farqli jihatlari, afzal hamda cheklangan tomonlari o'rghaniladi. Bu interfaol metod tanqidiy, tahliliy, aniq mantiqiy fikrlashni muvaffaqiyatli rivojlantirishga hamda tinglovchilarning mustaqil g'oyalari, fikrlarini yozma va og'zaki shaklda tizimli bayon etish, himoya qilishga imkoniyat yaratadi. "Xulosalash" metodidan ma'ruza mashg'ulotlarida individual va juftliklarda ishslash tartibida, amaliy va ko'chma mashg'ulotlarda kichik guruhrilar shaklida bilimlarni mustahkamlash, tahlil qilish va taqqoslash maqsadida foydalanish mumkin.

"Tushunchalar tahlili" metodi

Metodning maqsadi: mazkur metod tinglovchilar yoki qatnashchilarni mavzu bo'yicha tayanch tushunchalarni o'zlashtirish darajasini aniqlash, o'z bilimlarini mustaqil ravishda tekshirish, baholash, shuningdek, yangi mavzu buyicha dastlabki bilimlar darajasini tashxis qilish maqsadida ishlatiladi.

Metodni amalga oshirish tartibi:

- ishtirokchilar mashg'ulot qoidalari bilan tanishtiriladi;
- tinglovchilarga lingvovididaktika, kompyuter lingvovididaktikasiga yoki bobga tegishli bo'lgan so'zlar, tushunchalar nomi tushirilgan tarqatmalar beriladi (individual yoki guruhli tartibda);
 - tinglovchilar kompyuter lingvistikasi, lingvovididaktika, kompyuter lingvovididaktikasiga oid tushunchalar qanday ma'no anglatishi, qachon, qanday holatlarda qo'llanilishi haqida yozma ma'lumot beradilar;
 - belgilangan vaqt yakuniga yetgach o'qituvchi berilgan tushunchalarning to'g'ri va to'liq izohini o'qib eshittiradi yoki slayd orqali namoyish etadi;
 - har bir ishtirokchi berilgan to'gri javoblar bilan o'zining shaxsiy munosabatini taqqoslaydi, farqlarini aniqlaydi va o'z bilim darajasini tekshirib, baholaydi.

Namuna: "Moduldagи tayanch (asosiy) tushunchalar tahlili"

Tushunchalar	Sizningcha bu tushuncha qanday ma'noni anglatadi?	Qo'shimcham a'lumot
Kompyuter lingvistikasi		
Lingvovididaktika		
Kompyuter lingvovididaktikasi		
Til o'qitish dasturlari		

Masofaviy ta'lim		
Multimedia jamlanmasi		
Elektron darslik		
Elektron lug'at		

Izoh: Ikkinchagi ustunchaga qatnashchilar tomonidan fikr bildiriladi. Mazkur tushunchalar haqida qo'shimcha ma'lumot glossariyda keltirilgan.

Kompyuter texnologiyalarining yutug'i sifatida elektron lug'atlardan foydalanishni keltirish mumkin.

Ma'lumotlar qidirish, avtomatik referatlash va mashina tarjimasiga mo'ljallangan avtomatik lug'atlar foydalanuvchi uchun yaratilgan avtomatik lug'atlardan shunisi bilan farqlanadiki, lug'atdagi maqolalarning strukturasi va interfeysiiga ko'ra alohida ko'rinishga ega bo'ladi. Strukturalarning o'ziga xosligi dastur bilan bog'liq bo'lgan mavzularning lug'atga oid materiallari bilan bevosita u bilan bog'liq bo'lgan sohalarni ham qamrab olinganligidadir.

Bunday lug'atning tarkibida muayyan maqolaga ilova tarzida bog'langan yuzlab ilovalarni keltirish mumkin. Leksikografiyaning turli sohalari morfologik, sintaktik, semantik sathlarni o'z ichiga qamrab olishi ham mumkin.

An'anaviy lug'atlar mavzusiga ko'ra, ensiklopedik hamda lingvistik turlarga ajratiladi.

- Ayrim elektron lug'atlar qo'shimcha imkoniyatlarga ham ega bo'ladi, masalan, ko'ptillilik ABBYY lug'ati LingvoX5 (©2008ABBYY) (ABBYY Lingvo Tutor) o'qitish tizimiga ham egadir.

-Multimediali lug'atlar

Shuningdek, "qog'ozli" lug'atlardan elektron lug'atlar shunisi bilan farq qiladiki, ular multimediali va gippermatnli ham bo'lishi mumkin. Bunday gipperilovalar lug'atdagi istalgan maqolalarning elementi va lug'atning dasturiy menyusiga birirkirilgan bo'ladi. Bu esa foydalanuvchiga lug'atga oid kerakli ma'lumotlarni tezkorlik bilan qidirish imkoniyatini, bundan tashqari so'zga ulangan sinonim, antonim, semantik guruqlar, turlanish va tuslanishga oid bo'lgan grammatik paradigmalar haqidagi ma'lumotlarni olish imkoniyatini yaratadi.

Qayd etilganlardan tashqari tezaurus modellaridan ham foydalanish mumkin.

"Tezaurus" grekcha so'z bo'lib, "xazina" degan ma'noni bildiradi. Tezaurus ikki xil ma'noda qo'llanadi:

1. Mavzu doirasida keng ma'lumotlarni qamrab oladigan elektron baza sifatida ishlataladi.

2. Bir so'z doirasida barcha ma'lumotlarni umumlashtiradigan axborot majmui hisoblanadi. Bunday tezaruslar o'z qolipiga ega bo'lib, bir so'z doirasidagi ko'p ma'nolilik, omonimlik, sinonimlik, antonimlik, giponi-gieronomik munosabatlarni qamrab oladi. Dunyo tilshunosligida bir qator tezaruslar yaratilgan.

Jumladan, S.Bikova fransuz-rus yuridik terminologiyasini tezaurus asosida modellashtirishga bag'ishlangan tadqiqotida terminlarni sakkiz semantik sohaga ajratib tahlil qilgan1. Tadqiqotda SO – semanticheskaya oblast (semantik soha), SP – semanticheskoe pole (semantik maydon), SSP – semanticheskoe subpole (semantik submaydon), SM – semanticheskoe mikropole (semantik mikromaydon) modellaridan foydalanilgan.

Tezaurus lug'atlar o'zbek tilida mavjud bo'lmagani uchun ingliz va rus tillaridagi tibbiy terminlar tezaurusiga murojaat qilindi.

SS – tibbiyot sohasi. SM – Illness “kasallik”, “xastalik”

O'simlik yoki hayvonlarning me'yoriy tana faoliyatining buzilgan holati. Synonyms for illness (illness "kasallik" so'zining sinonimlari) distemperature (harorat), fever (isitma), ill (kasal), infirmity (zaiflik, kuchsizlik, quvvatsizlik), malady (kasallik), sickness (kasallik), trouble (qiyinchilik). Words Related to illness ("kasallik" so'ziga semantik aloqador so'zlar) contagious disease (yuqumli kasallik), contagion (yuqumli kasallik), contagium (yuqumli kasallik), infection (infeksiya), attack (xuruj qilmoq), bout (jang, bellashuv), fit (tetik, sog'lom), spell (afsun, duo) Near Antonyms for illness ("kasallik" so'zining yaqin antonimlari) fitness (sog'lomlik), healthiness (salomatlik); heartiness (tetiklik, sog'lomlik), robustness (mustahkamlik), soundness (mustahkamlik); wholeness (butunlik), wholesomeness (sog'lomlik). Antonyms for illness ("kasallik" so'zining antonimlari) health (sog'lomlik, salomatlik), wellness (salomatlik). The condition of not being in good health; (Sog'ligi joyida bo'lmaslik); Synonyms for illness ("kasallik" so'zining sinonimlari) indisposition (yengil xastalik, bir oz betob bo'lish), sickness (kasallik), unhealthiness (nosog'lomlik), unsoundness (kasalmandlik). [2, 17]

Tahlil va natijalar.

Mavjud tezaurus maqolalarining modellari (S.Y.Nikitina, P.I.Braslavskiy, S.Y.Bikova, Y.I. Gorbunova va boshqalar izlanishlarida qayd etilgan) va tadqiqotlar [1] asosida quyidagi semantik tarmoq tezaurus modeli ishlab chiqildi:

1. Tushuncha yoki terminning sof lingvistik jihatlarini, morfologik belgilarini ko'rsatish. Nutqda talaffuz etilishi va semantik xususiyatlarini ifodalash.
2. Terminning asl va ko'chma ma'nolarini ko'rsatish.
3. Terminning giperonimi, giponimi va etimologiyasi bilan bog'liq tushunchalarni yoritish.
4. Terminning til va nutqdagi ma'nolarini yoritish, lug'aviy birlik tarkibidagi semalariga e'tibor qaratish.

Mavjud tezaurus modellari asosida o'zbek tili tibbiy terminlarining quyidagi semantik tarmoq tezaurus modeli ishlab chiqildi:

1. Tibbiy terminning morfologik belgisi (tibbiy terminning sof lingvistik jihatlari qayd etiladi, ya'ni so'z shakli, tuzilishi, so'z turkumi belgilanadi).
2. Talaffuzi.
3. Semantik tarkibi: tibbiy terminning ma'no komponentlari, qaysi tushuncha uchun xizmat qilishi, ma'nolari aks ettiriladi va ularga tegishli misollar ham beriladi. Semantik tarkib quyidagi bandlarni o'z ichiga oladi:
 - a) *tibbiy terminning asl ma'nosi*: ushbu termindan, ayni paytda anglashiladigan real ma'nolar ko'zda tutiladi.
 - b) *ko'chma ma'nosi*: mazkur tibbiy terminning ma'no ko'chimlari (agar mavjud bo'lsa) misollar orqali ko'rsatiladi.
4. Omonimi (omonimi mavjud bo'lsa, misollar orqali izohlanadi).
5. Sinonimi (sinonimi mavjud bo'lsa, keltiriladi).
6. Antonimi (antonimi mavjud bo'lsa, keltiriladi va izohlanadi).
7. Giperonimi (tibbiy termin mansub bo'lgan umumiy tur (nom) izohlanadi).
8. Giponimi (tibbiy terminning o'z ichidagi turlari (atributlari) keltiriladi).
9. Etimologiyasi (tibbiy terminning kelib chiqishi va semantik taraqqiyoti aks ettiriladi).
10. O'zakdoshlari (shu termin asosida yasalgan lug'aviy birliklar keltiriladi).
11. Frazeologizmlar tarkibida qo'llanishi: agarda tibbiy termin frazeologik birliklar tarkibida ishlatsa, misollar keltiriladi.

12. Boshqa tillardagi varianti: tibbiy terminning rus, ingliz va rivojlangan xorijiy tillardagi tarjimasi beriladi. [2, 25]

Semantik tarmoq tezaurus modeli o'z qatlamga oid tibbiy terminlar semantikasini yoritishda ahamiyatlidir.

"Kasallik belgisi asosida shakllangan tibbiy terminlar" deb nomlangan paragrafda turli xil belgilar asosida semantik usulda yasalgan tibbiy terminlar tahlil qilingan. Masalan,

Tirishma	
Terminning morfologik belgisi	<i>ot</i> (ichki kasallik nomi)
Talaffuzi	<i>tirishma</i>
Semantik tarkibi	a) asl ma'nosi: <i>tirishma</i> – appenditsit (lotincha <i>appendix</i> – "o'simta") – bugungi kunda <i>ko'richak</i> deb yuritiladigan kasallikning qadimgi nomi. <i>Tirishma</i> ko'richakning pastki qismida joylashgan chuvalchangsimon o'simtaning embrional rivojlanishda o'smay qolgan qismidan paydo bo'ladi. Ana shu o'simtaning yallig'lanishi tirishma (appenditsit) deb ataladi; b) ko'chma ma'nosi: <i>norozilik, yuzni tirishtirish</i>
Omonimi	<i>tirishma</i> (g'ujanak bo'lish)
Sinonimi	<i>ko'richak, appenditsit, qorin og'rig'i, ich og'rig'i</i>
Antonimi	<i>kerishish</i>
Giperonimi	<i>kasallik</i>
Giponimi	<i>o'tkir appenditsit, xronik appenditsit.</i>
Etimologiyasi	<i>Bu leksema qadimgi turkiy tildagi tirish – "terining burishuvi natijasida hosil bo'lgan chuqur, iz, ajin" ma'nosidagi fe'lning buyruq shakliga -ma inkor oti yasovchisini qo'shish bilan hosil bo'lgan: tirish + (-ma) → tirishma, ya'ni fe'ldan ot yasalgan.</i>
O'zakdoshlari	<i>tirishish, tirishtirish</i>
Frazeologizmlar tarkibida qo'llanishi	<i>Tirishma tegmoq</i> (biror narsadan norozi bo'lib, qunishib qolgan odamga nisbatan ishlataladi).
Birikmalar tarkibida qo'llanishi	<i>Tirishma kasalligi, tirishma bo'ldi, tirishmani davolash, tirishma tashxisi, tirishma belgisi, tirishma asorati, tirishma natijasi, tirishma muddati, tirishma turi, yengil tirishma, og'ir tirishma</i>
Boshqa tillarda qo'llanishi	Rus tilida: <i>appenditsit</i> . Ingliz tilida: <i>Appendicitis</i> .

Xulosa. Tilning mavqeyini yuksaltirishdagi dastlabki omillardan biri - til o'qitish masalasidir. Bugungi kunda rus, ingliz, nemis, fransuz, koreys, arab, xitoy tillarini o'qitish metodikasining takomillashgan ko'rinishi boshqa tillar doirasiga dadil kirib bormoqda. Ana shunday vaziyatda o'zbek tilining dunyo tillari orasidan o'rin olishini ta'minlash, tilni ona tili, xalq, millat tili – qadriyat sifatida saqlab qolish, qo'llanish doirasini kengaytirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Adabiyotlar/Литература/ References:

1. Быкова С.Е. Тезаурусное моделирование юридической терминологии (на материале французского языка в сопоставлении с русским). – Екатеринбург, 2006. 216 с.
2. Suyunov B.Tibbiy terminlar semantikası va tezaurusi. Filol. fan. d-ri (DSc) ...diss. avtoref. – Toshkent, 2023. 35b.
3. Абдураҳмонова Н. Инглизча матнларни ўзбек тилига таржима қилиш дастурининг лингвистик таъминоти. Фило. фан... (PhD) дисс. – Тошкент, 2018. 235 6.
4. Abduhamidova L. Komyuter lingvistikasining avtomatik tahrir yo'nalishi. BMI. –Toshkent, 2016. 67 b.
5. Абжалова М.А. Ўзбек тилидаги матнларни компьютер воситасида таҳрир қилиш дастурининг лингвистик таъмини. Магистр илмий даражасини олиш учун ёзилган диссертация. –Тошкент, 2011. 786.
6. Абжалова М. Ўзбек тилидаги матнларни таҳрир ва таҳдил қилувчи дастурнинг лингвистик модуллари (расмий ва илмий услубдаги матнлар таҳрири дастури учун). Филол. фан...(PhD) дисс. –Тошкент, 2019. 128б.
7. Аврорин В.А. Проблемы изучения функциональной стороны языка (к вопросу о предмете социолингвистики). –Л., 1975. –С. 177.
8. Адилова С. Ўзбек тилини ўқитишида компьютер технологияларидан фойдаланиш. – Тошкент, 2006.
9. Акопянц А.М.Прагматика и лингводидактика. –М., 2008.
10. Xolmanova Z. Komyuter lingvistikasi. O'quv qo'llanma. Toshkent , 2019.

SCIENCEPROBLEMS.UZ

**ИЖТИМОЙ-ГУМАНИТАР ФАНЛАРНИНГ
ДОЛЗАРБ МУАММОЛАРИ**

№ S/2 (4) – 2024

**АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО-
ГУМАНИТАРНЫХ НАУК**

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

**Ижтимоий-гуманитар фанларнинг
долзарб муаммолари” электрон
журнали 2020 йил 6 август куни 1368-
сонли гувоҳнома билан давлат
рўйхатига олинган.**

**Муассис: “SCIENCEPROBLEMS TEAM”
маъсулияти чекланган жамияти**

Таҳририят манзили:
100070. Тошкент шаҳри, Яккасарой
тумани, Кичик Бешёғоч кўчаси, 70/10-
уй. Электрон манзил:
scienceproblems.uz@gmail.com
Боғланиш учун телефонлар:
(99) 602-09-84 (telegram).